

KAM TA'MINLANGAN KO'P BOLALI OILALAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISH TEKNOLOGIYALARI.

*SamDUKF Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Doniyorova Saida

*SamDUKF Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Xamidova Sevara

*Ilmiy rahbar SamDUKF Raqamlı texnologiyalar
va iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi
Ibragimov Jahongir Toshniyozovich*

Annotation. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida kam ta'minlangan ko'p bolali oilalar bilan ijtimoiy ish olib borishning zamonaviy texnologiyalari tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbliji ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar sonining ortib borayotgani, ularni qo'lllab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining izchil rivojlanib borayotganida namoyon bo'ladi. Maqolada kam ta'minlangan ko'p bolali oilalarning huquqiy maqomi, ularni aniqlash mezonlari, mavjud muammolar va yechimlar tizimli ravishda ko'rib chiqilgan. Shuningdek, individual, guruhli va jamoaviy ijtimoiy ish shakllari, axborot-resurs bazasini shakllantirish, davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligidagi amaliy mexanizmlar olib berilgan. Amaliyotda uchrayotgan muammolar, mavjud imkoniyatlar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar asosida ijtimoiy ish faoliyatining samaradorligini oshirishga oid xulosalar ishlab chiqilgan. Maqola ijtimoiy ish sohasi bo'yicha faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar va talabalar uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Аннотация. В статье анализируются современные технологии проведения социальной работы с малообеспеченными многодетными семьями в Республике Узбекистан. Актуальность темы обусловлена ростом числа групп, нуждающихся в социальной защите, и последовательной разработкой государственной политики, направленной на их поддержку. В статье системно рассматривается правовой статус малообеспеченных многодетных семей, критерии их выделения, существующие проблемы и пути их решения. Раскрываются индивидуальные, групповые и коллективные формы социальной работы, формирование информационно-ресурсной базы, практические механизмы взаимодействия государственных и негосударственных организаций. Разработаны выводы по повышению эффективности деятельности социальной работы на основе выявленных на практике проблем, имеющихся возможностей и предложений, направленных на их устранение. Статья представляет научное и практическое

значение для специалистов, научных работников и студентов, работающих в сфере социальной работы.

Abstract. This article analyzes modern technologies for conducting social work with low-income large families in the Republic of Uzbekistan. The relevance of the topic is reflected in the increasing number of groups in need of social protection and the consistent development of state policy aimed at supporting them. The article systematically examines the legal status of low-income large families, the criteria for their identification, existing problems and solutions. It also reveals individual, group and collective forms of social work, the formation of an information and resource base, practical mechanisms for cooperation between state and non-state organizations. Based on the problems encountered in practice, existing opportunities and proposals to eliminate them, conclusions are drawn on increasing the effectiveness of social work. The article is of scientific and practical importance for specialists, researchers and students working in the field of social work.

Kalit so'zlar: kam ta'minlangan oila, ko'p bolali oila, individual yondashuv, guruhli ish texnologiyasi, ijtimoiy himoya, integratsiya, mahallabay ishlash.

Ключевые слова: малообеспеченная семья, многодетная семья, индивидуальный подход, групповая технология работы, социальная защита, интеграция, работа по соседству.

Keywords: low-income family, large family, individual approach, group work technology, social protection, integration, neighborhood work.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy islohotlar jamiyatning barcha qatlamlariga, xususan, aholining ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj guruhlariga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatmoqda. Ayni paytda kam ta'minlangan ko'p bolali oilalar bilan samarali ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalaga aylangan. Chunki bunday oilalar, odatda, ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va psixologik muammolarga duch keladi. Bu esa ularning jamiyat hayotiga to'laqonli integratsiyalashuviga to'sqinlik qiladi. Ijtimoiy ish esa ana shu to'siqlarni bartaraf etishga, oilalarning ichki resurslarini safarbar qilishga va ijtimoiy moslashuvni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim vositadir.

Kam ta'minlangan ko'p bolali oila — bu iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy resurslari chegaralangan, to'liq yoki to'liq bo'lmagan tarkibga ega, tarkibida kamida **to'rt nafar voyaga yetmagan farzandi** bo'lgan, o'rtacha oylik daromadi **belgilangan yashash minimumidan past** bo'lgan, davlat tomonidan ijtimoiy yordamga muhtoj deb e'tirof etilgan oila hisoblanadi. Oila kodeksiga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlarga ko'ra, **to'rt nafar va undan ortiq 18 yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan oila** ko'p bolali oila hisoblanadi. Shuningdek, agar oilaning bolalaridan biri yoki bir nechasi kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan va 22 yoshga to'lmagan bo'lsa, bu oila ham ko'p

bolali oila sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Oila to'g'risida"gi Qonun, "Ijtimoiy himoya to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa qator normativ-huquqiy hujjatlar oilalarni qo'llab-quvvatlashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab bergen. Prezident tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi mexanizmlar esa kam ta'minlangan qatlamlar, xususan, ko'p bolali oilalarning ehtiyojlarini o'rganish va ularni manzilli qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yaratdi. Bu kabi yondashuvlar jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga, ijtimoiy tenglikka erishishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy ishda kam ta'minlangan ko'p bolali oilalarni aniqlash muhim bosqich hisoblanadi. Ular bilan ishslashda, avvalo, oiladagi bolalar soni, oila a'zolarining bandlik darajasi, mavjud daromad manbalari, sog'liq holati, yashash joyi va uy-joy sharoitlari, bolalarning maktabga qatnashi, sog'lig'i va psixologik muammolari hisobga olinadi. Kam ta'minlangan oila sifatida tan olinishi uchun, odatda, ularning daromadi belgilangan yashash minimumidan past bo'lishi kerak. Bu holat tuman va shahar hokimliklari, mahalla fuqarolar yig'inlari hamda tegishli ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari tomonidan maxsus mezonlar asosida aniqlanadi.

Ijtimoiy ishchilarining asosiy vazifasi nafaqat muammolarni aniqlash, balki ularni tizimli tarzda bartaraf etish, oilalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, zarur hollarda ularni psixologik, huquqiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bunda ijtimoiy ish texnologiyalari muhim o'rinni tutadi. Ular orasida individual, guruhli va jamoaviy ish uslublari keng qo'llaniladi.

Individual yondashuvda ijtimoiy ishchi har bir oila bilan alohida ishlaydi, oilaning ichki muhitini o'rganadi, ehtiyojlar tahlil qilinadi, har bir a'zoning muammosi alohida ko'rib chiqiladi. Bu orqali oilaning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki va tashqi omillar aniqlanadi hamda ular bo'yicha individual yordam dasturi ishlab chiqiladi.

Guruhli ish texnologiyasida esa bir nechta oilalar ishtirokida umumiy muammolar tahlil qilinadi, tajriba almashiladi, masalan, "Ko'p bolali onalar klub" orqali tarbiyaviy tajribalar, iqtisodiy resurslarni tejash usullari, farzandlar tarbiyasi borasida foydali maslahatlar beriladi. Bunday yondashuv oilalar o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jamoaviy texnologiyalar esa butun mahalla yoki hudud darajasida amalga oshiriladi. Bu jarayonda mahalla faollari, tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar, psixologlar va boshqa mutaxassislar hamkorligida ijtimoiy loyihalar, profilaktik tadbirlar, kasbhunar o'rgatuvchi dasturlar yo'lga qo'yiladi.

Kam ta'minlangan ko'p bolali oilalar bilan ishslashda axborot-resurs bazasini shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir oila to'g'risida tizimli ma'lumotlar jamlab borilishi, ularning ehtiyojlarini, salohiyatlari, ilgari ko'rsatilgan yordamlar va natijalari haqida aniq ma'lumotlar bo'lishi ijtimoiy ishchi faoliyatini

samarali tashkil etishda yordam beradi. Bunday ma'lumotlar zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida elektron platformalarda saqlanadi, bu esa har bir ijtimoiy ishchiga o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va strategik rejalashtirish imkonini yaratadi.

Davlat va nodavlat tashkilotlar o'rta sidagi hamkorlik kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'lmini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, "Saxovat" va "Mehr-shavqat" jamg'armalari, mahalliy biznes tuzilmalari, xalqaro nodavlat tashkilotlar orqali ijtimoiy xizmatlar doirasini kengaytirish, mikrograntlar va mini-loyihalar orqali oilalarning o'zini o'zi ta'minlash imkoniyatlarini yaratish mumkin. Ayni vaqtda bir nechta hududlarda tajriba tariqasida "Mahallabay ishlash" tizimi joriy qilinmoqda, bu esa mahalla darajasida ijtimoiy muammolarga tezkor va manzilli yondashishni ta'minlaydi.

Ko'p bolali oilalarning farzandlari o'rta sida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, ta'lim olishiga imkoniyat yaratish ijtimoiy ishning yana bir yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada maktablar, sport va san'at muassasalari bilan hamkorlikda tadbirlar, to'garaklar va tanlovlardan tashkil etiladi. Shu orqali bolalarning ijtimoiy moslashuvi, o'z-o'ziga ishonchi oshadi.

Shunga qaramasdan, amaliyotda muammolar mavjud. Jumladan, ijtimoiy ishchilar yetarli emas, mavjudlarining malaka darajasi har doim ham yetarli emas. Ayrim hollarda yordamlar manzilli emas, takroriy yordamlar bir oilaga berilib, boshqalarga yetmay qolmoqda. Bundan tashqari, oilalarning o'zlarida ham muammolarga befarqlik, tashabbus yetishmovchiligi, ijtimoiy yordamga faqat moddiy vosita sifatida qarash holatlari uchramoqda. Bu esa ijtimoiy ishchilarning faqat tashqi yordam emas, balki ichki motivatsiyani oshirish ustida ham ishlashini taqozo etadi.

Yechim sifatida ijtimoiy ishchilar uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish, tajriba almashuv dasturlarini yo'lga qo'yish, zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish, monitoring va tahlil tizimini takomillashtirish, mahallalarda "ijtimoiy kurator" institutini joriy etish taklif etiladi. Bu orqali har bir oila uchun shaxsiy mas'ul ijtimoiy ishchi belgilanadi va ular bilan doimiy aloqada bo'lib, holatni nazorat qilib boradi.

Yana bir yechim sifatida "Loyiha menejerlari" loyihasini ijtimoiy xodimlar faoliyatida qo'llashni taklif beramiz. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzurida yuqori natijaga erishib kelayotgan, ijobiy tajribaga ega 50 nafar hokim yordamchisidan iborat "Loyiha menejerlari" guruhi tashkil etiladi.

Bunda: "Loyiha menejerlari" guruhi tarkibidagi har bir hokim yordamchisi samaradorlik ko'rsatkichlari past bo'lgan tuman (shahar)larga biriktiriladi va ular olti oygacha mazkur tuman (shahar)lardagi mahallalarga xizmat safariga yuboriladi. Respublikamizdagi o'z faoliyatida ijobiy ko'rsatkichlarni qayd etib kelayotgan ijtimoiy xodimlarni ham aynan ushbu loyihadagi kabi past ko'rsatkich qayd etayotgan

hududlarga safarbar qilish va ish tajribasini boshqalar bilan ulashish imkoniyatini yaratib berish lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.

1. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori** — "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil.
2. **O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 30.04.1998y**
3. **Jo'raev, M. M. Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti.** Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2020
4. Qodirova, G. R. *Ijtimoiy ishda maqsadli guruhlar bilan ishlash texnologiyasi.* Toshkent. 2018
5. Rasulova, M. "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi: muammolar va yechimlar". *Ijtimoiy fanlar jurnali* 2020
6. Karimov, B. "Ko'p bolali oilalarning ijtimoiy himoyasi va ijtimoiy ishning roli". *O'zbekiston ijtimoiy fanlari axborotnomasi* 2021